

ANTONIMLAR ASSOTSIATIV MAYDONNI SHAKLLANTIRUVCHI ASOSIY VOSITA SIFATIDA**Axmedova Nargiza Shixnazarovna,***Oriental universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi**G-mail: ashnargiza@gmail.com*<https://orcid.org/0009-0000-4508-4381>

Annotatsiya. Ushbu maqola psixolingvistikaning dolzarb masalalaridan biri – antonimlarni lisoniy ongda assotsiativ-verbal tuzilmalar sifatida tadqiq etishga bag‘ishlangan. Maqolada antonimiyaning nafaqat lisoniy universalisiya, balki inson ruhiyatidagi psixologik mexanizm ekanligi tajriba ma’lumotlari asosida tahlil qilinadi. Maqolada assotsiativ tajriba natijalari, lisoniy ong va qarama-qarshi tayanch tushunchalarning bir-birini eslatish vazifasi ilmiy asoslab berilgan.

Tayanch so‘zlar: lisoniy ong, antonimlar, assotsiativ-verbal tuzilma, assotsiativ maydon, assotsiativ tajriba, semantik xotira, psixolingvistika.

Аннотация. Данная статья посвящена исследованию одной из актуальных проблем психолингвистики — антонимов как ассоциативно-вербальных структур в языковом сознании. На основе экспериментальных данных анализируется антонимия не только как языковая универсалия, но и как психологический механизм человеческого сознания. В статье научно обосновываются результаты ассоциативного эксперимента, особенности языкового сознания и функция взаимного актуализирования противоположных опорных понятий.

Ключевые слова: языковое сознание, антонимы, ассоциативно-вербальная структура, ассоциативное поле, ассоциативный эксперимент, семантическая память, психолингвистика.

Abstract. This article is dedicated to one of the pressing issues in psycholinguistics: the study of antonyms as associative-verbal structures within the linguistic consciousness. Based on empirical data, the paper analyzes antonymy not merely as a linguistic universal, but as a psychological mechanism inherent in the human psyche. The article provides a scientific rationale for the results of the associative experiment, the nature of linguistic consciousness, and the cueing function of contrasting core concepts in triggering one another.

Keywords: linguistic consciousness, antonyms, associative-verbal structure, associative field, associative experiment, semantic memory, psycholinguistics.

Kirish. Zamonaviy antroposentrik tilshunoslik kognitiv tizim va lisoniy ong muammolarini o‘rganishda yangi paradigmalarni ilgari surmoqda. Inson ongida voqelikning lisoniy manzarasi tarqoq holda emas, balki ma’lum bir tizimli uzviylikda, ya’ni assotsiativ-verbal tarmoqlar ko‘rinishida saqlanadi. Mashhur psixolingvist A.A. Zalevskaya ta’kidlaganidek, insonning mental leksikoni shunchaki so‘zlar ombori bo‘lmay, doimiy harakatdagi murakkab kognitiv tizimdir.

Ushbu tizimning barqarorligini, uning struktura markazlarini va undagi axborot almashinuvining tezkorligini ta’minlovchi eng kuchli kognitiv mexanizmlardan biri – antonimiyadir. Antonimlar an’anaviy tilshunoslikda faqat paradigmatic munosabatga kirishuvchi, qarama-qarshi ma’noli leksik birliklar sifatida o‘rganilgan bo‘lsa, psixolingvistik planda ular inson semantik xotirasining tayanch nuqtalari va assotsiativ maydonni shakllantiruvchi yetakchi tizimlashtiruvchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Til tizimida antonimlar nafaqat qarama-qarshi ma’noni ifodalovchi leksik birliklar, balki inson tafakkurida konseptual oppozitsiyalarni shakllantiruvchi muhim semantik

mexanizm hisoblanadi. Inson borliqni ko‘pincha ziddiyatlar orqali idrok etadi: yaxshi – yomon, yorug‘ – qorong‘i, hayot – o‘lim kabi qarama-qarshi tushunchalar tafakkurning kategorial asosini tashkil qiladi. Shu bois antonimiya hodisasi assotsiativ maydonning markaziy struktur elementlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili. Ushbu maqolaning maqsadi antonimlarning lisoniy ongda assotsiativ maydon yadrosini tashkil etishdagi o‘rnini, ularning assotsiativ-verbal tuzilmalarni yuzaga keltirish mexanizmlarini, shuningdek, o‘zbek tili konseptual tizimidagi o‘ziga xosligini tajribaviy va ilmiy-nazariy jihatdan chuqur asoslab berishdan iborat. Lisoniy ongda assotsiativ maydonlarning shakllanishi va uning ichki tarkibiy tuzilmasi psixolingvistikada N.O. Tarasov, A.A. Zalevskaya, R.M. Frumkina kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot psixolingvistik va kognitiv tilshunoslik yondashuvlari asosida amalga oshirildi. Tadqiqotda tavsifiy-tahliliy, assotsiativ tajriba, statistik tahlil hamda qiyosiy metodlardan foydalanildi. Talabalar ishtirokida o‘tkazilgan erkin assotsiativ tajriba natijalari asosida antonimlarning lisoniy ongda assotsiativ maydonni shakllantirishdagi o‘rni o‘rganildi. Olingan natijalar o‘zbek tili milliy korpusi materiallari hamda psixolingvistika sohasidagi ilmiy qarashlar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqotda antonimlarning semantik xotira, assotsiativ-verbal tuzilma va lisoniy ong tizimidagi kognitiv funksiyalari aniqlashtirildi.

Tahlillar va natijalar. Assotsiativ maydon til egasining ongida ma’lum bir tushuncha bilan bog‘liq holda yuzaga keladigan semantik, emotsional va madaniy aloqalar tizimidir. Antonimlar ushbu tizimda oppozitiv munosabat hosil qilib, ma’noning chegaralarini aniqlashtiradi va konseptual tafakkurni tartibga soladi. Chunki har qanday tushuncha ko‘pincha o‘zining zid ma’noli jufti orqali yanada aniqroq anglanadi. Masalan, “yaxshilik” tushunchasi “yomonlik” kategoriyasi bilan oppozitsiyada mavjud bo‘lib, biri ikkinchisini semantik jihatdan faollashtiradi.

Psixolingvistik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson miyasi antonimik juftliklarni boshqa semantik munosabatlarga qaraganda tezroq qabul qiladi va qayta ishlaydi. Bu esa antonimlarning kognitiv jihatdan yuqori darajada assotsiativ kuchga ega ekanligini tasdiqlaydi. Ayniqsa, semantik xotira tizimida antonimik birliklar o‘zaro mustahkam neyroassotsiativ bog‘lanish hosil qiladi. Natijada bir tushuncha ongda avtomatik ravishda unga zid bo‘lgan birlikni chaqiradi.

“Insonning mental leksikonida so‘zlar o‘zaro kognitiv turtki – eslatish hodisasi hamda to‘lqinli faollashuv qonuniyati asosida zanjir hosil qiladi. Bu modelning mohiyati shundaki, inson miyasidagi neyron tarmoqda muayyan bir so‘z uyg‘onganda, uning signali xuddi suvga tashlangan tosh kabi atrofdagi eng yaqin semantik masofada joylashgan boshqa tushunchalarga ham tarqaladi va ularni ham harakatga keltiradi”.[4]

An’anaviy struktural tilshunoslikda antonimlar til tizimining ichki hodisasi deb qaraladi. Biroq psixolingvistik nuqtayi nazardan qarama-qarshilik inson idrokining

fundamental, gnoseologik qonuniyatidir. Inson dunyoni idrok mezonlari va binar oppozitsiyalar orqali angelaydi: *baland-past*, *bor-yo'q*. Lisoniy ongda predmet yoki tushunchaning mohiyati uning aksini inkor etish yoki unga qiyoslash orqali yanada yaqinroq moddiylashadi.

Kognitiv tilshunoslik nuqtayi nazaridan, antonimlar bitta umumiy giponimik maydon ostida birlashadi. Masalan, “*oq*” va “*qora*” birliklari uchun yuqori tushuncha (giperonim) – “*rang*” maydonidir. Ongda qidiruv jarayoni boshlanganda miya mazkur maydon ichidagi eng yuqori kontrastga ega bo'lgan va eng qisqa kognitiv masofadagi so'zga yo'naltiriladi. Demak, kognitiv tilshunoslik nuqtai nazaridan antonimlar inson tafakkuridagi binar oppozitsiyalarni ifodalovchi lingvistik birliklardir. Ular orqali shaxs borliqni tartiblaydi, voqelikni baholaydi va konseptual xarita yaratadi. Shu sababli antonimlarni oddiy lug'aviy qarama-qarshilik sifatida emas, balki tafakkur va til o'rtasidagi murakkab assotsiativ munosabatlarni yuzaga keltiruvchi universal semantik mexanizm sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Oliy ta'lim talabalari ishtirokida o'tkazilgan erkin assotsiativ tajriba materiallari tahliliga e'tibor qaratsak, assotsiativ maydonda antonimlarning bir-birini eslatish vazifasi yuqori ekanligini ko'rish mumkin. Masalan, “*kun*” so'zi assotsiativ maydonida “*tun*” so'zi 68% qatnashuvchi tomonidan eslangan, ya'ni sinaluvchilar ongida “*kun*” so'zi uning antonimi bo'lgan “*tun/kecha*” birligini faollashtirgan. Antonim so'z assotsiativ maydonning markazi vazifasini bajarmoqda.

Insonning baho munosabatini aks ettiruvchi “*yaxshi*” turtki so'zi tahlil qilinganda quyidagi kognitiv manzara kuzatildi:

- yaxshi - yomon (72%) [mutlaq yadro – antonimik oppozitsiya];
- yaxshi - odam (12%) [yadro atrofi – sintagmatik kognitiv aloqa];
- yaxshi – do'st / bola (8%) [yadro atrofi — semantik yaqinlik sintagmatik aloqa];
- yaxshi – baho / amallar (6%) [periferiya — madaniy-konnotativ];
- javobsiz (2%).

Ijobiy semantik bahoga ega bo'lgan so'zlarda teskari reaksiyaning (antonimning) bu qadar yuqori ko'rsatkichda chiqishi inson miyasidagi “kognitiv asimmetriya” bilan bog'liq. Neyrolingvistik nuqtayi nazardan, inson ongida ijobiy va salbiy qutblar bitta koordinatada joylashadi va ijobiy qutb berilganda salbiy qutb uni muvozanatlash uchun birinchi bo'lib yuzaga chiqadi. [1]

Harakat ifodalovchi fe'llarda antonimlarning assotsiativ maydon shakllantirish xususiyati ot va sifatlarga qaraganda o'ziga xos dinamikaga ega. Garchi fe'llarda sintagmatik aloqalar (qayerga kelmoq? - *uyga kelmoq*) kuchli bo'lishi taxmin qilingan bo'lsa-da, eksperiment natijalari 55% holatda baribir antonimik juftlik (*ketmoq*) ustunligini ko'rsatdi. Bu holat inson ongida harakat yo'nalishining ham ikki qutbli o'lchovlar tizimida muhrlanishini ilmiy jihatdan isbotlaydi.

O‘zbek xalqi mentaliteti va lisoniy ongida alohida lingvokulturologik qiymatga ega bo‘lgan “do‘st” so‘zining assotsiativ maydoni tekshirilganda, natijalar kutilgandan murakkabroq chiqdi, ya’ni do‘st so‘ziga berilgan javoblarda dushman so‘zi 48 %, sodiq/sirdosh so‘zi 22%, birodar/og‘ayni so‘zi 18%, sotqin/xiyonat so‘zlari 10%, javobsiz bo‘lgan 2 % ma’lumotlar aniqlandi. Mazkur tahlilda antonimik reaksiya (*dushman*) 50% dan pastroq ko‘rsatkichni ko‘rsatdi. Buning sababi “do‘st” konseptining milliy lisoniy ongda o‘ta yuqori kognitiv, hissiy va ijtimoiy yukka ega ekanligidir. Biroq shunga qaramay, u baribir maydonning markazida turibdi. Periferiyadagi *sotqin*, *xiyonat* kabi assotsiatlar esa subyektlarning shaxsiy, hayotiy-kuzatuv tajribalarining lisoniy ongda konsept sifatida shakllanishiga ko‘rsatgan ta’sirining natijasidir.

Nazariy va tajribaviy xulosalarimizni tekshirish hamda yanada boyitish maqsadida o‘zbek tili milliy korpusi ma’lumotlariga murojaat qildik. Korpusdagi so‘zlarning birga kelish chastotasi lisoniy ongning matndagi obyektivlashgan ko‘rinishini namoyon etadi. Korpus tahlili natijasida aniqlangan eng yuqori chastotali antonimik juft so‘zlar statistikasi quyidagicha ekanligi aniqlandi. Ya’ni katta-kichik birikuvi 89%, yaxshi-yomon 76%, kecha-kunduz 61% holatda matnlarda ishtirok etgan. Matniy muhitda antonimlarning bu qadar yuqori chastotada yonma-yon yoki bitta sintaktik qurilmada kelishi tasodif emas. Matn – bu lisoniy ongning tashqi reallashgan shaklidir. Ongda qaysi assotsiativ tarmoq mustahkam bo‘lsa, nutqiy diskursda ham o‘sha bog‘lanishlar moddiylashadi. Korpus tahlili biz o‘tkazgan assotsiativ tajriba natijalarini to‘liq tekshirish va uning obyektivligini ilmiy tasdiqlash imkonini beradi.

Tajribaga asoslanib olingan natijalar psixolingvistik maydon nazariyasining yangi va fundamental qirralarini ochib beradi. Antonimlar assotsiativ maydonda shunchaki bir chiziqli reaksiya emas, balki butun tizimni ushlab turuvchi “kognitiv magnet” vazifasini o‘taydi. Tilshunos olim A.A.Залевская inson mental leksikonida so‘zlarning joylashishini tushuntirib, antonimlar assotsiativ maydonning eng barqaror va yadroviy qismini tashkil etishini, chunki ular miyadagi eng qisqa assotsiativ yo‘lga egaligini yozadi. [2]

Rossiya assotsiativ lug‘ati asoschisi hisoblangan Karaulov ijobiy va salbiy turtki so‘zlarning bir-biri bilan “egizak qutblar” kabi bog‘lanishini va biri berilganda ikkinchisi tizim muvozanatini saqlash uchun “magnet kabi” sirtga chiqishini ta’kidlaydi.[3]

Assotsiativ tajribada turtki so‘zga nisbatan nima uchun antonimlar birinchi bo‘lib eslanish asoslari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Ma’noviy umumiylik (semantik invariantlik) va minimal farqlash qoidasi. Antonimik juftliklar yagona konseptual maydonga tegishli bo‘lib, ularning o‘zaro farqi faqatgina bir dona farqlovchi belgi orqali namoyon bo‘ladi. Shu sababli semantik xotiraning qidirish mexanizmi mazkur umumiy ma’no doirasiga kirishi bilan, unga eng yaqin va eng keskin qarama-qarshi bo‘lgan nuqtaga zudlik bilan impuls uzatadi.

2. Lisoniy tejamkorlik qonuni. Inson tafakkuri axborotni ikki qutbli tizimda muhrlashga moyildir. Antonimlar lisoniy ongda energiyani tejash, voqelikni tezkorlik bilan guruhlariga ajratish hamda unga baho berish imkonini ta'minlaydi.

3. Psixolingvistik impuls va assotsiativ muvozanat. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, agar so'zlar o'rtasidagi antonimik bog'liqlik o'zaro teng (simmetrik) bo'lsa, ya'ni birinchi so'z ikkinchisini, ikkinchi so'z esa birinchisini darhol yodga solsa, u holda ularning miyadagi yaxlitlik darajasi eng yuqori nuqtaga etadi.

Ba'zan turtki so'zning lug'atdagi antonimi emas, lug'atda aks etmagan, til egalari ongida mavjud bo'lgan qarama-qarshi ma'noli birliklarni ham eslatishi olimlar tomonidan ta'kidlanadi. Tilshunos olim Ovchinnikova verbal assotsiatsiya hosil qilishda antonimning paydo bo'lishi taxminan 30% holatlarda kuzatilishini aytib o'tadi. Unga ko'ra, verbal assotsiatsiyalar inson ruhiyatidagi eng mustahkam chuqur semantik struktura turlaridan biridir. Shuning uchun ham *eshik – deraza, qiz bola – o'g'il bola, ish – bekorchilik, izlamoq – yo'qotmoq, aldov – haqiqat, ichmoq – yemoq, yordam bermoq – xalaqit bermoq, ish – dam olish, ovoz – pichirlash, tog' – jarlik, shahar – qishloq, olov – suv* kabi so'zlar o'zaro qarama-qarshi qo'yiladi. Buning natijasi o'laroq, so'z bir nechta antonimik komponentlarga ega bo'lishi mumkin. [5]

Yuqoridagilardan kelib chiqib, antonimik juftliklar haqida gapirganda, ularni bir mohiyat ichidagi qarama-qarshiliklarning nomlanishi, ya'ni antonimlarning an'anaviy talqini sifatida emas, balki til tashuvchilarining ongida o'zaro qarama-qarshi qo'yiladigan va teskari deb tushuniladigan mohiyatlar sifatida talqin qilish mumkin, deb hisoblanadi. Bu o'rinda tegishli lug'atlarda taqdim etilgan lisoniy) antonimiya tizimi assotsiativ antonimiya ma'lumotlari bilan to'ldirilishi mumkin, deyishga asos bor. Oraliq holat esa ham og'zaki nutqda, ham badiiy adabiyot matnlarida keng namoyon bo'ladigan okkazional antonimiya hodisalaridir.

Assotsiativ tajribada idrok etuvchi ongida antonimik komponentning "qalqib chiqishi" tabiiy holat, biroq ushbu komponent har doim ham ushbu matnda berilgan antonimga juft bo'lgan aniq bir leksik birlik orqali ifodalanishi shart emas. Antonimik juftlikning qarama-qarshi komponenti leksik jihatdan aktuallashtirilishi ham mumkin.) [6] "Okkazional antonimlar, – deb yozadi V.A. Maslova, – aftidan, aynan ehtimoliy, implitsit (yashirin) belgilarni aktuallashtirish jarayonida hosil bo'ladi. Buning ustiga, aktuallashtirilgan belgilar eksplitsit belgilardan qanchalik uzoq joylashgan bo'lsa, yuzaga kelgan qarama-qarshiliklar shunchalik kutilmagan va mutlaqo kontekstual xarakterga ega bo'ladi". [7]

Xulosa o'rnida psixolingvistik talqinda lisoniy va kontekstual antonimiya o'rtasidagi qarama-qarshilik chegirib tashlanadi, ya'ni yo'qoladi, chunki bular yagona lingvistik universalining tarmoqlaridir. Antonimiya shunchaki lingvistik emas, balki psixologik universalidir. Xususan, "assotsiativ antonimlar" uchun so'z turkumi jihatidan bir xillik kabi mezon endi shubhasiz to'g'ri bo'lmay qoladi. Og'zaki va yozma nutqda, shuningdek, tajribada antonim assotsiatlar asosida yuzaga keladigan matnlarning o'ziga xos

xususiyatlariga kelsak, ularning to‘liq tahlili, shubhasiz, aynan matnga xos bo‘lgan qator maxsus parametrlarni ham hisobga olishi lozim – bunda matn inson lisoniy ongi mazmunini ochib berish usullaridan biri sifatida tushuniladi.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, antonimlar lisoniy ongda assotsiativ maydonni shakllantiruvchi, uning mikrotuzilmasini barqarorlashtiruvchi bosh kognitiv-psixolingvistik vositadir.[8] Antonimiyaning ushbu psixolingvistik xususiyati inson semantik xotirasining binar tuzilishga ega ekanligidan hamda lisoniy ongda axborotni qayta ishlash kontrastlik, oppozitsiya mexanizmiga tayanishidan dalolat beradi.

Demak, antonimlar assotsiativ maydonni shakllantirishda asosiy vositalardan biri bo‘lib, ular semantik oppozitsiya, kognitiv tasniflash, emotsional baholash va madaniy konseptlarni tashkil etishda muhim vazifani bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Залевская А. А. Введение в психолингвистику. – М.: РГГУ, 2000. – 382 с.
2. Залевская А.А. Слово в ментальном лексиконе человека: психолингвистическое исследование. – Л.: ЛГУ, 1990. – 176 с.
3. Караулов, Ю. Н. Активная грамматика и ассоциативно-вербальная сеть. – Москва, 1999. – 180 с.
4. Collins A. M., Loftus E. F. A spreading-activation theory of semantic processing // Psychological Review. – 1975. – Vol. 82. – No. 6. – P. 407-428.
5. Овчинникова И.Г. Ассоциативный механизм в речемыслительной деятельности. Автореферат диссертации...доктора филологических наук. – СПб., 2002.
6. Маслова В.А. Принцип противопоставления и его реализация в системе языка (на материале лексических единиц). Диссертация на соиск.уч.степ.кандидата филол.наук. – Ош, 1980. – 151.
7. Ахмедова Н. Ш. Место антонимов и синонимов в ассоциативном поле // Бюллетень науки и практики. 2025. Т. 11. №2. С. 525-529. <https://doi.org/10.33619/2414-2948/111/66>